

O‘SPIRINLIK YOSHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

| | |
|--|---|
| | <p style="text-align: center;">Murxashev Axmadxon Olimjon o‘g‘li <i>Andijon davlat universiteti Ijtimoiy iqtisodiy fanlar fakulteti Amaliy psixologiya yo‘nalishi 3-bosqich talabasi</i></p> |
|--|---|

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot o‘spirinlik davridagi psixologik xususiyatlarni, jumladan, fiziologik, ijtimoiy, jismoniy va jinsiy rivojlanishni o‘rganadi. Tadqiqot tez o‘shishning psixologik va ijtimoiy yetuklikka qanday ta‘sir ko‘rsatishini tushunishdagi bo‘shliqni aniqlaydi. Mavjud nazariyalar va empirik tadqiqotlar tahlil qilinib, fiziologik o‘zgarishlar va ijtimoiy kutishlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik ko‘rib chiqiladi.

Topilmalar shuni ko‘rsatadiki, 14.5 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan o‘spirinlik davri sezilarli fiziologik va psixologik o‘zgarishlar bilan ajralib turadi. Fiziologik jihatdan, o‘spirinlar tez o‘shish fazasini boshdan kechirishadi, bu esa ovqatlanish va jismoniy faollik bilan bog‘liq. Psixologik jihatdan esa, o‘z-o‘zini anglash va mustaqillik kuchayadi, ijtimoiy rollar aniqroq bo‘ladi. Ta‘lim va ijtimoiy kontekst ushbu rivojlanish bosqichini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Bu tadqiqotning natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu davrda fiziologik salomatlik va psixologik qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar muhimdir. O‘spirinlikning rivojlanish bosqichlarini tushunish, ta‘limchilar, ota-onalar va siyosatchilarga o‘smirlar uchun muvozanatli o‘shishni va muvaffaqiyatli kattalikka o‘tishni qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Rivojlanish, fiziologik, ijtimoiy, jismoniy va jinsiy taraqqiyot, o‘spirinlik.

Rivojlanish jarayonida faqat bilim va faoliyat usullarining o‘zgarishi va murakkablashishi sodir bo‘lib qolmaydi. Bolaning psixik rivojlanishi uning butun shaxsidagi o‘zgarishlarni, ya‘ni shaxs umumiy xususiyatlarining rivojlanishini o‘z ichiga oladi. Rivojlanish jarayonida bolalar psixik faoliyatining turli jihatlari o‘zgaradi, usullar yig‘ilishi va o‘zgarishi sodir bo‘ladi. Bola ko‘p miqdordagi turli harakatlarni bajara oladi, bilim va tasavvurlari o‘zgaradi. Mazkur o‘zgarishlar ichidan nisbatan umumiy va belgilovchi o‘zgarishlarni ajratib ko‘rsatish mumkin bo‘ladi. Xar bir yoshdagi psixik rivojlanish alohida sifat bosqichiga ega bo‘ladi.

Yosh xususiyatlari ko‘plab shartlar majmui bilan belgilanadi. Bu - bola hayotidagi har bir bosqichda unga qo‘yiladigan talablar sistemasi, atrofdagilar bilan munosabat, u egallayotgan bilim va faoliyat turi hamda bu bilimlarni egallash usullaridir. Yosh xususiyatini aniqlovchi shartlar majmuiga bolaning jismoniy rivojlanishi xususiyatlari ham kiradi. Yosh psixologiyasida yoshlik odatda jinsiy voyaga yetish bilan boshlanib, kattalikning boshlanishi bilan yakunlanuvchi rivojlanish bosqichi sifatida belgilanadi. Bunday birinchi chegara – fiziologik chegaradir. Ikkinchisi esa – ijtimoiy. Bu yosh davri murakkab va ko‘pqirrali.

O‘spirinlikni individ (fiziologik, biologik xususiyatlar va o‘zgarishlar) yoki shaxs (ijtimoiy va psixologik jarayon) sifatida inson rivojlanishining ichki jarayonlari nuqtai nazaridan tadqiq etuvchi ko‘plab yoshlik nazariyalari mavjud.



Zamonaviy fanning fikricha, yoshlik muammosini rivojlanish omillari va ichki qonuniyatlarini inobatga olgan holda kompleks, har tomonlama o'rganish kerak. Bu juda qiyin, negaki psixologik rivojlanish sur'ati va bosqichlari har doim ham ijtimoiy voyaga yetish muddati bilan mos kelavermaydi. Akseleratsiya natijasida bugungi bolalarning jismoniy rivojlanishi bir-ikki avlod oldingilardan ikki yilga tezlashgan. Akseleratsiya bilan bog'liq tarzda o'smirlik yoshi chegaralari «yashardi» u 14 – 14,5 yoshdayoq yakunlanadi. Shunga muvofiq tarzda o'spirinlik ham ertaroq boshlanadi. Yuqoridagilarga asoslanib, ilk o'spirinlikning quyidagi yosh chegaralarini belgilash mumkin – bu 14,5–17 yosh.

Ilk o'spirinlik yoshi davriga 15-18 yoshlardagi (IX-XI sinf o'quvchilari), kiradilar. Bu davrda o'quvchi jismonan baquvvat, o'qishni tugatgach, mustaqil mehnat qila oladigan, oliy maktabda o'zini sinab ko'radigan imkoniyatga ega bo'ladi, ma'naviy jihatdan yetuklikka erishadi. O'spirin 16 yoshida mamlakat fuqarosi va 18 yoshida esa saylash hamda saylanish huquqiga ega bo'ladi. Bularning barchasi o'spirinnga fuqaro sifatida ijtimoiy jihatdan voyaga yetishi, hayotda o'z o'rnini topishi, o'z taqdirini o'zi hal qilishi va yetuk Shaxs sifatida ma'naviy o'sishi uchun jamiki shart-sharoitlarni yaratadi.

Ilk o'spirinning shaxsi ijtimoiy hayotda, maktab jamoasida, tengqurlari bilan munosabatlarda egallagan muglaqo yangicha mavqei ta'sirida, o'qish va turmush sharoitidagi o'zgarishlar ta'sirida tarkib topa boshlaydi.

Mazkur davrning yana bir xususiyati mehnat bilan ta'lim faoliyatining bir xil ahamiyat kasb etishidan iboratdir. Mavjud shart-sharoitlar ta'siri ostida o'spirinning aqliy va ahloqiy jihatdan o'sishida o'ziga xos o'zgarishlar, yangi xislat va fazilatlar namoyon bo'ladi. Erta o'spirinlik – inson jismoniy rivojlanishining yakunlanish davri. Tananing bo'yiga o'sishi o'smirlik yoshiga nisbatan sekinlashadi. Qizlar 16–17 (farq 13 oy) yosh orasida, yigitlar 17–18 yosh orasida (farq 10 oy) to'la bo'yga yetadilar. Bolalar qizlardan vazn bo'yicha biroz ortda qolishi o'rnini qoplaydilar. Mushaklar kuchi juda tez ortadi: 16 yoshli bola bu jihatdan 12 yoshli boladan deyarli ikki barobar ustunlik qiladi. O'sish yakunlangandan so'ng taxminan bir yildan keyin odam kattalarga xos normal mushak kuchiga erishadi. Ko'p narsa, albatta, to'g'ri ovqatlanish va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishga bog'liq. Ayrim sport turlarida erda yoshlik – maksimal yutuqlar davridir.

Ilk o'spirinlik yoshi bolalarning 15 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan taraqqiyot davrini o'z ichiga oladi. Bu akademik litsey va kabs –xunar kollejlari o'quvchilaridir. Bo'yining o'sishi o'spirin qizlarda 15-16 yoshgacha, o'g'il bolalarda 17 –18 yoshga davom etadi. Bu yoshda muskullar kuchi tez o'sadi.

Jismoniy taraqqiyot asosan barchasi to'g'ri ovqatlanish rejimiga va jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishiga ko'p jihatdan bog'lik. Jinsiy taraqqiyot jihatdan bu yoshdagi ko'pchilik yigit va qizlar postpubertat (tugallanuvchi) davrda bo'ladilar. Bularning jismoniy rivojlanishi katta yoshdagi odamning jismoniy rivojlanishdan kam farq qiladi. Bo'yining va organizmning notekis o'sishi va rivojlanish davri tugallanadi hamda jismoniy rivojlanishning nisbatan birmuncha tekis davri boshlanadi. O'spirinlik yoshida jismoniy sifatlar (bo'y og'irlik) nisbatan barqaror darajaga yetgan bo'ladi. Shuningdek, muskul kuchi va ishchanlik qobiliyati sezilarli darajada ortadi. Ko'krak qafasining xajmi kengayadi, skelet, naychasimon suyaklar qattiqlashadi, to'qimalar va a'zolarining shakllanishi va funktsional taraqqiyoti tugallanadi. Odatda ana shu yoshda yurak va qon tomirlarning rivojlanishida o'smirlarga xos bo'lgan notekislik endi tekislashadi, qon bosimi baravarlashadi, ichki sekretsiya bezlari bir me'yorda ishlay boshlaydi. Bu yoshda nerv sistemasining va xususan miya rivojlanishida o'zgarishlar ma'lum bo'lib qoladi. Lekin bu o'zgarishlar miya massasining ortishi xisobiga emas, balki miyaning ichki xujayralari tuzilishining murakkablashuvi xisobiga ruy beradi. Bosh miya pusti qismlarini assotsiativ to'qimalarning miqdori ko'payadi. Natijada o'qish va mehnat jarayonida katta {yarim shar} qatlamining analitik sintetik





faoliyati murakkablashadi. Jinsiy yetilish muddati irqiy va milliy xususiyatlarga va iqlimga bog'lik bo'lmaydi.

Ilk o'spirinlik davrini ikkinchi o'tish davri deb xisoblash mumkin. Agar birinchi o'tish davridagi ko'proq bolalikka yaqin bo'lsa, ikkinchi o'tish davrida bo'lgan o'spirin ko'proq yoshlik davriga yaqindir va shu jihatidan o'rganiladi, hamda tadqiq etiladi. Ilk o'spirinlik davri asosan unda mustaqil hayotning boshlanishi bilan (o'rta maktabni tamomlab litsey, kollejlarga kirishi) xarakterlanadi. Hayotdagi bu o'zgarishlar ilk o'spirinlik shaxsiga, uni o'z –o'zini anglashiga to'liq tasir ko'rsatadi. O'smirlardan farqli o'laroq ilk o'spirinlar katta hayotni tasavvur etmaydilar, balki unda ishtirok etadilar. Uning nafaqat mustaqilligi ortishi bilan bir qatorda kattalarning unga munosabatlari ham o'zgaradi. Kattalar o'smirlarga ko'proq bola deb qarasarlar, ilk o'spirin yoshdagilarga katta odamdek munosabatda bo'ladilar. Ilk o'spirinlar hayotda o'z o'rnini topishga nisbatan intilish anglagan holatida bo'la boshlaydilar. U o'z hayotiy rejalarini amalga oshirish uchun xarakat qila boshlaydi va ma'lum bir kasbni egallay boshlaydi yoki shu soha bo'yicha akademik litseylarda o'qishini davom ettiradi. O'spirinlar tanlagan sohalari yoki kasblarida juda katta yangiliklar, kashfiyotlar qilgilari keladi, lekin asta-sekinlik bilan yangilik va kashfiyotlar qilish uchun ularda bilim va tajriba yetishmayotganligini va buning uchun ko'proq o'qish va o'rganishlari kerakligini anglay boshlaydilar.

O'spirin bola bilan katta odam o'rtasidagi oraliq mavqeni egallaydi. Bolaning jamiyatda tutgan o'rni kattalarga bog'liqdir, kattalar ularga hayot faoliyatining asosiy mazmun va yo'nalishini belgilab beradilar. Bolaning bajaradigan roli kattalar rolidan sifat jihatdan farq qiladi. Hayot faoliyati murakkablashgan sari o'spirinlarda ijtimoiy rollar kengligi faqat miqdor tomondangina kengayib qolmay, balki sifat tomonidan ham o'zgarib boradi. M: 16 yoshda pasport oladi. 18 yoshidan faol saylash xuquqiga va oila qurish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'spirin jinoiy ishlar uchun javobgar bo'ladi. Ba'zi o'spirinlar bu yoshdan boshlab ishlay ham boshlaydilar. Kasb tanlash haqida uylay boshlaydilar. Lekin shunga qaramay o'spirinlarda kattalarga qaramlik xususiyatlari saqlanib qoladi. O'spirinlar (16 –18 yoshlar) o'zlarining psixologik xususiyatlari bilan boshqa yosh davrdagi bolalardan keskin farq qiladilar jismoniy, ham aqliy jihatdan voyaga etgan, kamolotga erishgan, dunyoqarashi, o'z –o'zini boshqarishi kabi yetuk insoniy xususiyatlari tarkib topgan bo'ladi. Shu tufayli ular vazmin, muloxazali bo'ladilar, katta yoshdagilarga xurmat –extirom bilan qaraydilar. Ular uzoqni kuzlaydigan, kelajak uchun qayg'uradigan, ota –onalarining yaqin yordamchisiga aylanadilar. O'quv faoliyati o'spirinning asosiy faoliyati bo'lib qolaveradi, lekin o'qishga nisbatan faqat o'smirlik yoshiga qaraganda o'spirinlikda bir muncha yuqoriroq bo'ladi. Mustaqil hayotga tayyorgarligini o'z –o'zini anglash bilan motivlar bu davrda yetakchi o'rinni egallaydi. Motivlar tizimida jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lishga intilish insonlarga naf keltirish kabi ijtimoiy motivlar ustunlik qiladi.

Bu davrda o'spirinlarning kelgusi hayotiy va tanlayotgan kasbiy rejalariga ko'ra fanlarga nisbatan qiziqishlari ham o'zgaradi va bu o'z navbatida o'spirinning fanlarga, hamda shu fan o'qituvchilariga nisbatan munosabat ham o'zgaradi. O'spirinlik davrida o'z ko'zlagan maqsadlariga erishishga asoslangan motivlar birinchi o'ringa ko'tariladi. O'smirlar o'zlarining o'qishga bo'lgan munosabatlari va ularning o'qish –o'rganishga undovchi sabablarni yaxshi anglaydilar.

Ilk o'spirinlik davri kamolot bo'sag'asi deb ta'riflanadi. Bu kamolot bosqichi fiziologik, psixologik va ijtimoiy chegaralarni o'z ichiga oladi. Psixologiya fani o'spirinlik muammosini kompleks o'rganishni da'vat etadi. Bu juda qiyin masala, chunki psixofiziologik taraqqiyot suroati bilan uning fazalari ijtimoiy yetilishi muddati bilan hamma vaqt ham to'g'ri kelavermaydi. Akseleratsiya natijasida bugungi bolalarimiz taraqqiyoti ikki-uch avvalgi avlodga nisbatan o'rtacha ikki-uch yil oldin tugallanmoqda.



Fiziologlar bu protsesni 2chi darajali jinsiy belgilarning paydo bo'lishiga qarab Zta fazaga ajratadilar:

I faza - prepuberitant.

II faza- puberitant.

Sh faza - pastpuberitant.

Akseleratsiya munosabati bilan o'spirinlik yoshi chegarasi endi 15-16 dan 18 yoshgacha bo'lmoqda. Demak, o'spirinlik ham oldin boshlanadi. Lekin bu taraqqiyot etapining konkret mazmuni Ichi navbatda ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi. Yoshlarning jamiyatda tutgan o'rni, ularning mavkei, ular egallaydigan bilimlar hajmi va bir qator boshqa faktorlar ijtimoiy sharoitlarga bog'lik bo'ladi.

O'spirinning o'quv mashg'ulotiga munosabati o'z xususiyati va mazmuni jihatidan boshqa yoshdagi o'quvchilarning ta'lim jarayoniga munosabatidan tubdan farq qiladi. O'quv rejasi va dasturning murakkablashuvi, yangi fan va mavzularning kiritilishi o'zlashtirilishi nazariy tafakkur yordamida amalga oshirishni taqazo etadi. Ana shundan kelib chiqqan xolda, o'quvchilarning o'qishga munosabati ham o'zgaradi, ular ayrim fanlarga tanlab munosabatda bo'la boshlaydilar.

Xulosa

O'spirinlik yoshi o'qish, mexnat, muloqot singari yegakchi faoliyatlar asosida umumiy va maxsus layoqatlarining rivojlanayotganligi bilan xarakterlanadi. O'spirinlik davrida bilish jarayonlarining rivojlanishi faol ravishda kechadi. Lekin bu rivojlanish o'spirinning o'ziga va uning atrofidagi ko'zatuvchilarga kam seziladi. O'spirinlik davriga kelib juda ko'p bolalarda o'z faoliyatlarini oldindan rejalashtirish layoqati yaxshi rivojlangan bo'ladi. Shuningdek, o'z –o'zini boshqarish ham o'spirinlik yoshidagi bolalarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'smirlik davrining oxirlari va o'spirinlik yoshiga kelib, ularda mexnat ko'nikma va malakalari rivojlanadi. Bu ko'nikma va malakalaridan ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatlari bilan to'g'ridan – to'g'ri bog'liq. Tajribalarning ko'rsatishicha, agar o'spirinlik davriga kelib unda kelgusida yaxshi kasbiy layoqatlarni yuzaga kelishiga umid bog'lash qiyin. misol uchun bolalik paytlarida texnika bilan muomila qila olmagan, slesarlik asbob –uskunalaridan foydalana olmagan, o'z qo'li bilan manidir bajara olmagan bola talantli injener konstruktor bo'lib yetishi ancha mushkul yoki litsey va kollejlarda matematik, lingvistik, badiiy –ijodiy layoqatlarini ko'rsata olmagan bola katta bo'lganida xech qachon kuchli matematik, filolog yoki musavir bo'lib yetisha olmaydi. Xar qanday kasbiy ko'nikma va malakalarning o'sishi avvalo o'spirin intellektining umumiy rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Shuning uchun ham bu davrdagi o'spirinlar intellektining rivojlanishiga alohida e'tibor berish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Iragimov X.I.Abdullaeva Sh.A.Pedagogika.(o'quv qo'llanma). Toshkent:"Fan" ,2004
2. Z.T.Nishonova. Mustaqil ijodiy fikrlash. – T.: Fan.- 2003.
3. Ибрахимов, Б. (2023). НИ ВЕСЕЛОВСКИЙ КАК ИССЛЕДОВАТЕЛЬ СРЕДНЕЙ АЗИИ. *Interpretation and researches*, 1(4).
4. G'ulomjonov, O. (2023). OILAVIY HUQUQLARNI AMALGA OSHIRISH VA OILAVIY MAJBURIYATLARNI BAJARISH. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (7), 856-860.





5. Абдуллаев, А. Н. (2020). SOCIAL AND ECONOMIC FACTORS OF COUVOLUTION PROBLEMS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(8), 150-155.
6. Tolibjonovich, M. T., & Rahimjon o'g'li, G. O. (2021). Prerequisites for the Development Of A Leasing Mechanism In Public-Private Partnership. *International Engineering Journal For Research & Development*, 6 (SP), 5.
7. 3. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya: darslik. I, II kitob. T., 2002.

